

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova Shoxsanam G’ayrat qizi - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173
23.	Mamatov Baxadir Safaraliyeviç	Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlari va ustuvor yönalişlari	183
24.	Ruziyev Baxtiyor Salimboyeviç	Özbekiston tijorat banklarining moliyaviy holatini topologik ma’lumotlar tahlili usulida baholaş	193
25.	Bo’riboyeva Zamiraxon Ravshan qizi	Yengil sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalaştiriş: muammolari va ularni hal etiş yöllari	202
26.	Арипов Нодир Салимович	Рақамли трансформация минтақа иқтисодиётини барқарор ривожлантириш омили сифатида	213
27.	Маматов Ахметжон Атажанович	Миллий иқтисодиётни тадқиқ этишнинг илмий-назарий асослари ва уни трансформациялаш омиллари	220
28.	Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi	Janubiy Koreyada tibbiy sug‘urta tizimini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	229
29.	Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro Yevroobligatsiyalar joylashtirish amaliyotining tahlili	235

30.	Dehkanova Nargiza Sharifovna	Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni baholash mexanizmlarini shakllantirishning konseptual asoslari	242
31.	Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi	O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasini budjetdan moliyalashtirish holatining tahlili	249
32.	Xamdamov Omonullo Ne’matullayevich	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari	254
33.	Xudayarov Oybek Odilovich, Hayitova Dilnura Ikromjon qizi	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlarida xalqaro audit standartlarining o‘rni	262
34.	Fayazov Xasan Jaxongir o‘g‘li	Behavioral economics of financial self-control: saving and spending decisions	268
35.	Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi, Sirojitdinov Abdulxamid Alimovich	Aholi daromadlari va iste’mol xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni SPSS dasturida ekonometrik baholash va test xatoliklarini tahlil qilish	277
36.	Şerimbetov Inomjon Xalilullayevıç	Moliyaviy hisobotlar sifatini ta’minlaşning nazariy asoslari	286
37.	Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobi uslubiyotini takomillashtirish: xorij tajribasi va uslubiy model	292

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJ TAJRIBASI VA USLUBIY MODEL

Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: *Maqolada Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya va Qozog‘istonning shifoxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tajribasi umumlashtirilgan va uning tamoyillari Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillardagi hisobot ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazilgan. Sinov natijalari asosida to‘rtta qo‘shimcha tamoyil va yettita uslubiy elementdan iborat zaxiralar hisobining takomillashtirilgan modeli, o‘nta avtomatik nazorat qoidasi va hisobot shaklini kengaytirish takliflari ishlab chiqilgan. Model hisob-kitoblari bo‘limlardagi qoldiqni hisobga olish balansdagi zaxiralarni uchdan bir qismga aniqlashtirishini, yo‘qotishlarning bir foizlik darajasi esa yetti yilda 148,7 mln. so‘mni tashkil etishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *tovar-moddiy zaxiralar, budjet hisobi, uslubiy model, xorij tajribasi, kuzatuvchanlik, raqamli markirovka, avtomatik nazorat, hisob siyosati.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УЧЕТА ТОВАРНО-МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАПАСОВ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

Туляганов Абдумалик Абдирахимович
Ташкентский государственный экономический университет, доцент кафедры «Финансовый учет и отчетность», PhD

Аннотация: *В статье обобщен опыт учета товарно-материальных запасов в больницах Великобритании, Германии, Франции, США, России и Казахстана, его принципы проверены на данных отчетности Ташкентской областной специализированной соматической больницы за 2019-2025 годы. На основе проверки разработаны усовершенствованная модель учета запасов из четырех дополнительных принципов и семи методических элементов, десять правил автоматического контроля и предложения по расширению формы отчетности. Модельные расчеты показали, что учет остатков в отделениях уточняет стоимость запасов в балансе на треть, а потери на уровне одного процента за семь лет составляют 148,7 млн сумов.*

Ключевые слова: *товарно-материальные запасы, бюджетный учет, методическая модель, зарубежный опыт, прослеживаемость, цифровая маркировка, автоматический контроль, учетная политика.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR INVENTORY ACCOUNTING IN PUBLIC HEALTHCARE ORGANIZATIONS: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND A METHODOLOGICAL MODEL

Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich
Tashkent State University of Economics, Associate Professor of the Department of Financial Accounting and Reporting, PhD

Abstract: *The article summarizes inventory accounting practice in hospitals of the United Kingdom, Germany, France, the United States, Russia and Kazakhstan and tests its principles on the 2019-2025 reporting data of the Tashkent Regional Specialized Somatic Hospital. Based on*

the test, an improved inventory accounting model consisting of four additional principles and seven methodological elements, ten automated control rules and proposals for extending the reporting form are developed. Model calculations show that recognizing ward stock adjusts the balance sheet value of inventories by one third, while losses of one percent amount to 148.7 million soums over seven years.

Keywords: *inventories, public sector accounting, methodological model, international practice, traceability, digital marking, automated control, accounting policy.*

Kirish

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish haqida gap ketganda ko‘pincha yangi standart, yangi hisobot shakli yoki yangi dastur nazarda tutiladi. Muallifning davlat tibbiyot muassasalaridagi yigirma yillik amaliyoti boshqa narsani ko‘rsatadi: hisobning eng ko‘p uchraydigan nuqsonlari qoidaning yo‘qligidan emas, qoidalarning bir-biri bilan bog‘lanmaganidan kelib chiqadi. Tasnif bir hujjatda, baholash ikkinchisida, inventarizatsiya uchinchisida belgilanadi, ularni tibbiy jarayon mantig‘i asosida yagona tizimga birlashtiruvchi qoida esa yozilmagan.

Mavzuning dolzarbligi uchta o‘zgarish bilan belgilanadi. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash 2022-yildan bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [1]. PQ-411-son qaror shifoxonalarga majburiy minimal zaxira va dori qoldiqlarini kunlik e’lon qilish talabini qo‘ydi, 2025-yilda esa dori vositalari muomalasini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi [2; 3]. Davlat tibbiy sug‘urtasiga o‘tish natijasida tadqiqot obyektida budjetdan moliyalashtirish 2024-yildagi 11 011,5 mln. so‘mdan 2025-yilda 12,9 mln. so‘mga tushdi [4]. Holatlar bo‘yicha to‘lovda moddiy xarajatni bemor darajasida o‘lchash zarur, amaldagi hisob esa bunday axborotni bermaydi.

Tadqiqotning maqsadi ilg‘or xorij tajribasini tadqiqot obyekti ma’lumotlarida sinash asosida davlat tibbiyot tashkilotlarida zaxiralar hisobining takomillashtirilgan uslubiy modelini ishlab chiqish va uning hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat sektorida zaxiralar hisobining xalqaro asosi IPSAS 12 standartidir. U xizmat ko‘rsatishda iste’mol qilinadigan zaxiralarni tannarx va joriy almashtirish qiymatining eng kichigida baholashni va ularni iste’mol qilingan davrda xarajat sifatida tan olishni talab qiladi [5]. Muhimi, standart «iste’mol» deganda bo‘limga berishni emas, xizmat ko‘rsatishda haqiqiy foydalanishni nazarda tutadi. O‘zbekiston budjet hisobining 7-son standarti va 2026-yilda yangilangan hisob siyosatiga oid 1-son standart shu mantiqqa yaqinlashtirilgan, lekin bo‘limdagi qoldiq, partiya bo‘yicha kuzatuv va moliyalashtirish manbalari kabi tibbiyotga xos masalalarni alohida belgilamaydi [6; 7].

Rossiya Federatsiyasining davlat sektori uchun «Zaxiralar» federal standarti va budjet hisobi yo‘riqnomasiga ko‘ra, sog‘liqni saqlash muassasalarida bo‘limga berilgan medikamentlar katta hamshiraning moddiy javobgarligiga o‘tkaziladi va hisobdan faqat haqiqiy sarf hujjatlari asosida chiqariladi [8; 9]. Qozog‘istonda davlat muassasalarining hisobi 2010-yildan xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan qoidalar asosida yuritiladi [10]. Germaniyada shifoxonalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi federal nizom zaxiralarni balansda bir necha guruhga ajratadi, shifoxona to‘lov tizimi institutining kalkulyatsiya qo‘llanmasi esa moddiy xarajatlarni umumiy va bemorga individual yoziladigan qismlarga bo‘ladi [11; 12]. Fransiyada davlat shifoxonalari M21 yo‘riqnomasi asosida hisob yuritadi va uning yangilangan tahriri 2026-yil 1-yanvardan qo‘llanilmoqda [13]. Buyuk Britaniyada bemor darajasidagi xarajatlar standartlari amal qiladi [14].

Ilmiy adabiyotda R. Busse va hammualliflari holatlar bo‘yicha to‘lov tizimlariga o‘tish shifoxonalarni xarajatlar hisobini qayta qurishga majbur qilganini ko‘rsatgan [15]. R. Kaplan va M. Porter xarajatni bemor darajasida o‘lchash sog‘liqni saqlashda samaradorlikni oshirishning

asosiy sharti ekanini asoslagan [16]. J. Folland va hammualliflari kasalxona moddiy logistikasi bo‘yicha adabiyotni umumlashtirib, bo‘limlardagi zaxira hisobning eng kam o‘rganilgan bo‘g‘ini ekanini qayd etgan [17]. Z. Mog‘yoroshi va P. Smit tibbiy xizmatlar tannarxini hisoblashda moddiy xarajatlarni bevosita bemorga yozish usullarini tahlil qilgan [18]. Mahalliy adabiyotda muallif avvalgi tadqiqotida davlat tibbiyot muassasalarida moddiy qiymatliklar harakati hisobini takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqqan [19]. Shu bilan birga xorij tajribasini O‘zbekiston muassasasining haqiqiy hisobot ma’lumotlarida miqdoriy sinash va uning asosida yaxlit uslubiy model taklif etish masalasi o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, model hisob-kitoblari va retrospektiv sinov usullari qo‘llanildi. Xorij tajribasi mamlakatlar bo‘yicha emas, tadqiqot obyekti tahlilida aniqlangan to‘rtta zaif bo‘g‘in bo‘yicha guruhlandi: baholash va tan olish qoidalari, hisobvaraqlar tafsiloti, bo‘lim va bemor darajasidagi kuzatuvchanlik hamda tashqi nazorat.

Empirik asos Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillar uchun balanslari, nomoliyaviy aktivlar harakati, xarajatlar smetasining ijrosi, debitorlik va kreditorlik qarzlari, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlari hamda 2024-yilgi ichki analitik registridan iborat [4; 20; 21]. Har bir xorijiy tamoyil bo‘yicha obyektdagi holat «bajariladi», «qisman» yoki «bajarilmaydi» deb baholandi. Taklif etilgan uslubiyotning hisobot ko‘rsatkichlariga ta’siri 2025-yil ma’lumotlarida model hisob-kitobi bilan aniqlandi. Avtomatik nazorat qoidalari esa 2019-2025-yillar ma’lumotlariga retrospektiv qo‘llanib, ular qaysi holatlarni o‘z vaqtida aniqlashi mumkin edi, degan savolga javob izlandi.

Tahlil va natijalar

Xorij tajribasining eng ibratli namunasi Buyuk Britaniyadagi Scan4Safety dasturidir. 2016-2019-yillarda oltita namunaviy trastda GS1 standartidagi shtrix-kodlar yordamida har bir tibbiy buyum va dori yetkazib beruvchidan bemorgacha kuzatildi. Natijada 140 ming soat klinik vaqt bo‘shatilgan, zaxiralar bir martalik 9 mln. funt sterlingga qisqargan va yillik takroriy tejam qariyb 5 mln. funt sterlingni tashkil etgan [22]. Kuzatuvchanlik zanjirining O‘zbekistondagi holati bilan qiyosi 1-rasmda ko‘rsatildi.



1-rasm. Tibbiy zaxiralarning kuzatuvchanlik zanjiri: Scan4Safety namunasi va O‘zbekistondagi amaldagi holat

Manba: *Muallif ishlanmasi. GS1 UK. A scan of the benefits: the Scan4Safety evidence report. - London, 2020 hamda O‘zbekistonda dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash tartibi asosida tuzilgan.*

O‘zbekistonda zanjirning boshi allaqachon raqamli: markirovka kodi, elektron hisobvaraq-faktura va davlat xaridlari portali kirim hujjatlarini raqamlashtirgan. Biroq markirovka kodi muassasa ichidagi hisob tizimiga ulanmagan va zanjir ombor eshigida uziladi. Shu ma’noda Scan4Safety tajribasining eng qimmat qismi, ya’ni har bir qadoqni noyob kod bilan belgilash, mamlakatimizda amalga oshirilgan. Rossiyada esa tibbiyot tashkiloti markirovkalangan dorini bemorga qo‘llaganda uning muomaladan chiqishini monitoring tizimida qayd etishi shart va muassasalar ombor hamda bo‘lim modullarini shu tizimga ulashga majbur bo‘lgan [9].

Zaxiralar nazoratidagi xatolarning miqyosini AQSh tajribasi ko‘rsatadi. Nyu-York shahri nazoratchisi xizmatining auditi shahar shifoxonalaridan birida 2007-moliya yili yakunida dori omboridagi nomlarning 50 foizi bo‘yicha sanoq va hisob yozuvlari o‘rtasida farq borligini, asoslanmagan tuzatishlar esa taxminan 3,75 mln. dollarni, ya’ni yillik dori xaridining qariyb 29 foizini tashkil etganini aniqlagan [23]. Buyuk Britaniya Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot vazirligi 2020-2021-moliya yilida shaxsiy himoya vositalariga sarflangan 12,1 mlrd. funt sterlingdan 8,7 mlrd. funt sterlinglik qadrsizlanishni hisobotda ochiq tan olgan [24]. Bu misollar yo‘qotish va qadrsizlanishni ko‘rsatish nazoratning zaifligi emas, uning oshkoraligi ekanini ko‘rsatadi.

Xorijiy tamoyillarning tadqiqot obyekti ma’lumotlarida sinovi natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Ilg‘or xorij tajribasi tamoyillarining tadqiqot obyekti ma’lumotlarida sinovi

Tamoyil	Xorijiy namuna	Asosiy obyektdagi holat	Xulosa
Hisob yozuvlari va hisobot ko‘rsatkichlarining mosligi	AQSh audit tavsiyalari	Balans va 5-son shakl qoldiqlari 7 yilda mos; smeta ijrosidagi dori haqiqiy xarajati 5-son shakldagi sarfga 7 yilda teng	Bajariladi
Xarajatni xizmatda iste’mol qilinganda tan olish	IPSAS 12, Rossiya	Dori bo‘limga berilganda xarajatga yoziladi; bo‘limdagi qoldiq hisobda yo‘q	Bajarilmaydi
Dori va boshqa tibbiy ehtiyojlarni ajratish	Germaniya	Ichki registrda 4 ta subkod bor; hisobotda bitta satr	Qisman
Yo‘qotish va qadrsizlanishni ochiq ko‘rsatish	Buyuk Britaniya	Kamomad, tabiiy yo‘qotish va qadrsizlanish 7 yil davomida nol; 2020-yilgi 340,8 mln. so‘mlik begaraz kirim qayta baholanmagan	Bajarilmaydi
Hisoblash usulida xarajatni aniqlash	IPSAS, Buyuk Britaniya	Haqiqiy xarajat sarf bo‘yicha aniqlanadi; 2021-yilda dori kreditorligi qoldiqdan 1,74 barobar ko‘p	Bajariladi
Holat bo‘yicha xarajat axboroti	Germaniya, Fransiya	2025-yilda budjet ulushi 0,1 % ga tushgan, kontingent hisobotlarida xizmat hajmi yo‘q	Bajarilmaydi

Manba: *Muallif tahlili. Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillar uchun balanslari, xarajatlar smetasining ijrosi, debitorlik va kreditorlik qarzlari, moliyaviy natijalar va nomoliyaviy aktivlar harakati to‘g‘risidagi hisobotlari hamda 2024-yilgi ichki analitik registri asosida.*

Oltita tamoyildan ikkitasi bajariladi, bittasi qisman, uchtasi bajarilmaydi. AQSh shifoxonasida audit aniqlagan muammo, ya’ni hisob yozuvlari va hisobot o‘rtasidagi tafovut, tadqiqot obyektida yo‘q: balans va 5-son shakl qoldiqlari yetti yilda mos keladi. Muammo boshqa joyda. Dori bo‘limga berilgan zahoti xarajatga yoziladi, yuqori qiymatli va oddiy buyumlar bitta satrda jamlanadi, yo‘qotishlar qayd etilmaydi. 2024-yil boshidagi ichki registrda dori satridagi 112,3 mln. so‘mlik qoldiq to‘rtta subkod bo‘yicha yuritilgan: medikamentlar 77,3, tibbiy buyumlar 31,3, tibbiy uskuna uchun materiallar 1,7, dezinfeksiya va shaxsiy himoya vositalari 1,9 mln. so‘m [21]. Germaniya tasnifiga ko‘ra qoldiqning 68,9 foizi dori vositalariga, 31,1 foizi boshqa tibbiy ehtiyojlarga to‘g‘ri keladi. Tafsilot ichki registrda bor, hisobotda esa bitta summa. Boshqacha

aytganda, mahalliy amaliyotda hisobning texnik aniqligi yuqori, uning boshqaruv uchun axborot sig‘imi esa past.

Sinov natijalari asosida takomillashtirilgan uslubiy model ishlab chiqildi (2-rasm). Modelning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, zaxira hisobi zaxiraning tibbiy jarayondagi yo‘lini kuzatishi, ya’ni hisob obyekti yetkazib beruvchidan bemorgacha uzilmasdan davom etishi kerak.



2-rasm. Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobining takomillashtirilgan uslubiy modeli

Manba: *Muallif ishlanmasi.*

Model uch qatlamdan iborat. Yuqori qatlamda amaldagi hisob tamoyillariga qo‘shimcha ravishda to‘rtta tamoyil belgilanadi: tibbiy jarayon bo‘ylab uzluksizlik, xarajatni iste’mol paytida tan olish, partiya va manba bo‘yicha kuzatuvchanlik hamda yo‘qotishlarning oshkoraligi. O‘rta qatlam ularni yettita uslubiy elementga aylantiradi. Tasnif elementi dori-darmonlar hisobvarag‘i ichida oltita subanalitik kod ochishni nazarda tutadi va ularning uchtasi ichki registrdagi mavjud subkodlarga bevosita mos keladi. Tan olish elementida bo‘limga berish bitta hisobvaraq ichidagi ko‘chirish sifatida aks ettiriladi, xarajat esa faqat bemorga sarf qaydnomasi asosida tan olinadi. Baholash elementida dori vositalari, reagentlar va vaksinalar uchun FIFO usuli partiya bo‘yicha hisob bilan birga qo‘llanadi, yuqori qiymatli buyumlar esa aniq identifikatsiya bo‘yicha baholanadi.

Manbalar elementida moliyalashtirish manbai belgisi ombor partiya kartochkasida kirim paytida qo‘yiladi va sarf qaydnomasida bemorning moliyalashtirish toifasi bilan solishtiriladi. Bu sug‘urta tizimi sharoitida ayniqsa muhim: 2025-yilda tadqiqot obyekti daromadlarining 68,9 foizi bitta «qonunchilikka muvofiq boshqa hisobvaraqlar» satrida jamlangan. Yo‘qotishlar elementida muddati o‘tgan, singan va to‘kilgan zaxira oddiy sarfdan ajratilib, komissiya dalolatnomasi bilan alohida hisobdan chiqariladi. Inventarizatsiya elementida yillik ro‘yxatga olish ABC tahlili bo‘yicha oylik tanlanma tekshiruvlar bilan to‘ldiriladi va bu buxgalteriya hisobining 19-son milliy standarti talablariga zid emas [25]. Ichki hisobot elementi rahbariyat uchun bir sahifalik oylik hisobot tuzilmasini belgilaydi.

Model qoidalari hisob dasturida avtomatik nazorat sifatida amalga oshirilishi kerak. Taklif etilayotgan o‘nta qoida 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Tovar-moddiy zaxiralar hisobida avtomatik nazorat qoidalari (tavsiya)

№	Nazorat qoidasi	Signal sharti	Javobgar shaxs
1	Partiya muddati nazorati	Muddati o‘tgan partiyani bo‘limga berishga urinish	Omborchi, dorixona mudiri
2	Ombor va buxgalteriya qoldiqlarining tengligi	Nomenklatura birligi bo‘yicha farq nolga teng emas	Moddiy qiymatliklar hisobchisi
3	Bo‘lim qoldig‘ining manfiy bo‘lmasligi	Sarf qaydnomasidagi miqdor bo‘lim qoldig‘idan katta	Katta hamshira
4	Zaxira me’yori	Qoldiq sug‘urta darajasidan past yoki me’yorning 1,5 barobaridan yuqori	Xarid bo‘yicha mas’ul xodim
5	Muddat yaqinlashuvi	Partiya muddatigacha 90 kundan kam qolgan va qoldiq oylik sarfdan katta	Dorixona mudiri
6	Manba muvofiqligi	Bemor toifasi va partiya manbai mos kelmaydi	Moddiy qiymatliklar hisobchisi
7	Sarf indeksi	Bo‘lim sarf indeksi o‘tgan uch oy o‘rtachasidan 30 foizdan ortiq farq qiladi	Bo‘lim mudiri
8	Yuqori qiymatli buyum	Seriya raqami operatsiya bayonnomasida qayd etilmagan	Operatsion blok katta hamshirasi
9	Kirim narxi	Kirim narxi shartnoma narxidan farq qiladi	Moddiy qiymatliklar hisobchisi
10	Yo‘qotishlar koeffitsienti	Oylik koeffitsient mo‘ljal oralig‘idan tashqarida yoki uch oy ketma-ket nolga teng	Bosh hisobchi

Manba: *Muallif ishlanmasi.*

Qoidalarning birortasi ham murakkab algoritm talab qilmaydi, ular oddiy taqqoslashlardan iborat. Ularning amaliy qiymatini tekshirish uchun qoidalar va ularga qo‘shimcha taklif etilayotgan shakllararo nazorat qoidalari tadqiqot obyektining 2019-2025-yillar ma’lumotlariga retrospektiv qo‘llandi (3-jadval).

3-jadval

Avtomatik nazorat qoidalarining tadqiqot obyekti ma’lumotlariga retrospektiv qo‘llanishi, 2019-2025-yillar

Qoida	Aniqlangan bo‘lar edigan holat	Yil	Summa
Shakllararo moslik (smeta ijrosi va 5-son shakl)*	Oziq-ovqat xarajati smetada qayd etilgan, zaxira sarfida yo‘q	2024	185,8 mln. so‘m
Zaxira me’yori	Dori qoldig‘i sug‘urta darajasidan past: 8,7 va 0,9 kunlik sarf	2022, 2024	40,7 va 7,8 mln. so‘m
Sof zaxira (qoldiq va kreditorlik)*	Dori kreditorligi qoldiqdan katta	2021	-61,4 mln. so‘m
Harakatsiz qoldiq	Ehtiyot qismlar qoldig‘i besh yil o‘zgarmagan	2019-2023	67,8 ming so‘m
Harakatsiz qoldiq	Budjetdan tashqari hisobvaraqda dori, uskuna materiallari va dezinfeksiya vositalari yil davomida harakatsiz	2024	3,7 mln. so‘m
Yo‘qotishlar koeffitsienti	Kamomad va tabiiy yo‘qotish ketma-ket nolga teng	2019-2025	-
Balans uzluksizligi*	Yil oxiri va keyingi yil boshidagi kreditorlik farqi	2023-2024	320,3 ming so‘m
Kategoriyalar bo‘yicha kirim*	Ehtiyot qismlar qoldig‘i sarfsiz hisobdan chiqqan	2023	67,8 ming so‘m

Manba: *Muallif tahlili. Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillar uchun hisobot to‘plami va 2024-yilgi ichki analitik registri asosida. * Qo‘shimcha taklif etilayotgan qoida.*

Yetti yil davomida yillik hisobotlar qabul qilingan va arifmetik nazoratdan o‘tgan, lekin jadvaldagi holatlarning birortasi ham rasmiy nazoratda aniqlanmagan. Eng yirigi, ya’ni 2024-yilda 185,8 mln. so‘mlik oziq-ovqat xarajatining zaxira hisobini chetlab o‘tishi, shakllararo moslik qoidasi bilan oy yakunidayoq aniqlangan bo‘lar edi. Zaxira me’yori qoidasi esa 2022 va 2024-yillarda dori qoldig‘i sug‘urta darajasidan, ya’ni 10 kunlik sarfdan pastga tushganini yil davomida ko‘rsatgan bo‘lar edi.

Modelning hisobot ko‘rsatkichlariga ta’siri 2025-yil ma’lumotlarida baholandi. Hisob-kitob uchta farazga tayanadi: bo‘limlarda bir haftalik ehtiyojga teng dori qoldig‘i bor, yo‘qotishlar dori sarfining bir foizini tashkil etadi va sof zaxira ko‘rsatkichida kreditorlik hisobga olinadi (4-jadval).

4-jadval

Takomillashtirilgan uslubiyotning tadqiqot obyekti hisobot ko‘rsatkichlariga ta’siri (model hisob-kitobi, 2025-yil), mln. so‘m

Ko‘rsatkich	Amaldagi hisobot	Model bo‘yicha	O‘zgarish
Yil oxiridagi zaxiralar qoldig‘i	224,1	299,9	+75,8
shu jumladan bo‘limlarda	-	75,8	+75,8
Dori vositalari sarfi (oddiy sarf)	3 950,0	3 834,7	-115,3
Yo‘qotishlar (muddati o‘tish, sinish, to‘kilish)	-	39,5	+39,5
Dori bo‘yicha kreditorlik qarzi	127,2	127,2	-
Sof zaxira (qoldiq - kreditorlik)	96,9	172,7	+75,8
Dori sarfining jami xarajatlardagi ulushi, %	21,9	21,5	-0,4

Manba: *Muallif hisob-kitobi. Bo‘limlardagi qoldiq 7 kunlik dori sarfiga, yo‘qotishlar dori sarfining 1 foiziga teng deb faraz qilingan; kreditorlik 01.01.2026 holatiga debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma bo‘yicha olingan.*

Zaxiralar qoldig‘i 224,1 mln. so‘mdan 299,9 mln. so‘mga, ya’ni uchdan bir qismga oshadi. Bo‘limlarda uch kunlik qoldiq bo‘lsa, oshish 14,5 foizni, o‘n kunlik qoldiqda 48,3 foizni tashkil etadi. Yana 39,5 mln. so‘m oddiy sarfdan ajratilib, hisobotda birinchi marta yo‘qotishlar satri sifatida ko‘rsatiladi. Yetti yillik dori sarfi 14 873,4 mln. so‘m ekanini hisobga olsak, yo‘qotishlarning bir foizlik darajasi 148,7 mln. so‘mni beradi va bu 2025-yil oxiridagi barcha zaxiralarning uchdan ikki qismiga teng. Sof zaxira 96,9 mln. so‘mdan 172,7 mln. so‘mga oshadi. Bu o‘zgarishlarning hech biri muassasaning iqtisodiy holatini o‘zgartirmaydi, ular mavjud holatni hisobotda to‘g‘riroq aks ettiradi. Uslubiyotni joriy etish uch bosqichda amalga oshirilishi taklif etiladi (3-rasm).



3-rasm. Takomillashtirilgan uslubiyotni tadqiqot obyektida joriy etish rejasi, 2026-yil iyulidan boshlab oylar

Manba: *Muallif ishlanmasi.*

Dastlabki bosqich 2026-yilning ikkinchi yarmini qamraydi va hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritish, subanalitik kodlarni ochish hamda bo‘lim analitikasini joriy etishni o‘z ichiga oladi. 2027-yil davomida oylik inventarizatsiya, yo‘qotishlarni alohida hisobga olish va oylik ichki hisobot ishga tushiriladi. Yakuniy bosqichda markirovka kodi ombor va bo‘lim hisobiga ulanadi, yuqori qiymatli buyumlar bemorga individual yoziladi va holatlar bo‘yicha moddiy xarajatlar hisoboti tuziladi. Uslubiy model hisobot axborotining foydalanuvchilar uchun qiymatini ham oshiradi. Biz oltita foydalanuvchi guruhining zaxiralar bo‘yicha axborot ehtiyoji qanchalik qondirilishini amaldagi holat va takliflar joriy etilgandan keyingi holat bo‘yicha baholadik (4-rasm).



4-rasm. Foydalanuvchilarning axborot ehtiyoji qondirilish darajasi: amaldagi holat va takliflar joriy etilgandan keyin, ball

Manba: *Muallif baholashi. Ehtiyoj to‘liq qondirilganda 1, qisman qondirilganda 0,5, qondirilmaganda 0 ball berilgan.*

Amaldagi holatda o‘rtacha baho 0,58 ballni tashkil etadi: yuqori turuvchi tashkilot va moliya organlarining ehtiyoji to‘liq, uch guruhniki qisman qondiriladi, Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasining ehtiyoji esa umuman qondirilmaydi. Takliflar joriy etilgandan keyin o‘rtacha baho 0,92 ballgacha oshadi. Eng katta o‘sish sug‘urta jamg‘armasi va muassasa rahbariyatiga to‘g‘ri keladi, chunki aynan ular uchun bemor va bo‘lim darajasidagi axborot hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Muhokama

Tadqiqot natijalari xorij tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda asosiy to‘siq texnologiya emas, hisob siyosati va hisobot shakllarining tuzilmasi ekanini ko‘rsatadi. Modelning yettita elementidan beshtasi, ya’ni tasnif, tan olish, baholash, yo‘qotishlar va inventarizatsiya, muassasa hisob siyosati darajasida, hisobvaraqlar rejasi va hisobot shakllarini o‘zgartirmasdan joriy etiladi. Subanalitik kodlar yig‘indisi amaldagi hisobot satriga teng bo‘lgani uchun hisobot avvalgidek tuziladi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining alohida qarorini kutish shart emas.

Germaniya yoki Buyuk Britaniya shifoxonalarining axborot tizimlariga sarflangan mablag‘ni viloyat shifoxonasi bilan solishtirib bo‘lmaydi, shuning uchun ularning tajribasi bizga mos emas, degan e’tiroz ko‘p eshitiladi. Uning bir qismiga qo‘shilamiz: bemor darajasidagi to‘liq kalkulyatsiya tizimini qisqa muddatda joriy etish real emas, chunki u Germaniyada mustaqil kalkulyatsiya institutiga, Buyuk Britaniyada esa har bir trastdagi maxsus xodimlar guruhiga tayanadi [12; 14]. Biroq tajribaning katta qismi qimmat texnologiyani talab qilmaydi. Bo‘limdagi qoldiqni hisob obyekti deb tan olish, dori-darmonlar satrini kichik guruhlarga ajratish, yuqori qiymatli buyumlarni bemorga individual yozish va oylik ombor tekshiruvi hisob siyosatidagi o‘zgarish bilan amalga oshiriladi, markirovka kodi esa allaqachon mavjud.

Yo‘qotishlarni ochiq ko‘rsatish bilan bog‘liq xavotir ham asosli: nazorat organlari ularni kamchilik sifatida baholasa, muassasalar ularni yashirishga intiladi. Yechim yo‘qotishlarni yashirish emas, baholash mezonini o‘zgartirishdir. Yo‘qotishlar koeffitsienti uchun mo‘ljal oralig‘i belgilanishi, chora esa faqat u oshib ketgan holatda ko‘rilishi kerak. Ko‘p profilli statsionarda yetti yil davomida nolga teng yo‘qotish amalda mumkin emas va u savol tug‘dirishi lozim. Buyuk Britaniyadagi qadrsizlanish tajribasi xarid yilining o‘zida tan olingan yo‘qotish hisobotda ochiq ko‘rsatilib, jamoatchilik muhokamasiga chiqqanini ko‘rsatadi [24].

Modelning universalligi ham muhokama talab qiladi. Elementlar har bir muassasada bir xil, ularning ahamiyat darajasi esa profilga qarab o‘zgaradi. Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida zaxiralar balans aktivining 65,8-97,5 foizini tashkil etadi, shuning uchun bu yerda baholash va yo‘qotishlar elementlari birinchi o‘ringa chiqadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida esa foydalanishga berilgan inventarning balansdan tashqari qoldig‘i balansdagi zaxiralardan ko‘p va tasnif elementi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan uslubiyotning iqtisodiy samarasi ham baholandi: yo‘qotishlar sababini ochiq tahlil qilish natijasida ular bir foizdan yarim foizgacha kamaytirilsa, 2025-yilgi sarf darajasida yillik tejam 19,8 mln. so‘mni, 2028-yilgi prognoz sarfda 28,6 mln. so‘mni tashkil etadi. Bu summa uslubiyotni joriy etish xarajatlaridan, ya’ni hisob siyosatini qayta ishlash va xodimlarni o‘qitish xarajatidan bir necha barobar ko‘p.

Xulosa va takliflar

Ilg‘or xorij tajribasi zaxiralar hisobida uchta umumiy tamoyilni namoyon qiladi: xarajat xizmat ko‘rsatishda iste’mol qilinganda tan olinadi va bo‘limdagi qoldiq hisob obyekti bo‘lib qoladi; moddiy xarajatlar umumiy va bemorga individual yoziladigan qismlarga ajratiladi; kuzatuvchanlik yetkazib beruvchidan bemorgacha yagona kod orqali ta’minlanadi. Tadqiqot obyektida oltita xorijiy tamoyildan faqat ikkitasi, ya’ni hisob yozuvlari va hisobot ko‘rsatkichlarining mosligi hamda xarajatni hisoblash usulida aniqlash, to‘liq bajariladi.

Taklif etilgan uslubiy model to‘rtta qo‘shimcha tamoyil va yettita uslubiy elementdan iborat bo‘lib, ularning beshtasi muassasa hisob siyosati darajasida joriy etiladi. Model hisob-kitoblariga ko‘ra bo‘limdagi qoldiqni hisobga olish balansdagi zaxiralarni 14,5-48,3 foizga aniqlashtiradi, yo‘qotishlarning bir foizlik darajasi esa yetti yilda 148,7 mln. so‘mni tashkil etadi. Bu axborot hozirda hisobotda ko‘rinmaydi.

Amaliyot uchun quyidagilar taklif etiladi: muassasa hisob siyosatiga tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha alohida bo‘lim kiritish va unda subanalitik kodlar, tan olish nuqtasi, baholash usullari, yo‘qotishlarni hisobdan chiqarish va oylik inventarizatsiya tartibini belgilash; hisob dasturida o‘nta avtomatik nazorat qoidasini va smeta ijrosi hamda zaxiralar hisoboti o‘rtasidagi shakllararo nazoratni joriy etish; raqamli markirovka kodini ombor kartochkasi va bo‘lim jurnali bilan bog‘lash; Sog‘liqni saqlash vazirligi darajasida bir necha namunaviy shifoxonada modelni sinovdan o‘tkazib, keyin hisobot shaklini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son «Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-137-son «Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

3. Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillar uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlari.

4. International Public Sector Accounting Standards Board. IPSAS 12 «Inventories» // Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. 2023 Edition. Vol. I. - New York: International Federation of Accountants, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining 7-son standarti «Tovar-moddiy zaxiralar»: Moliya vazirining 2018-yil 12-dekabrdagi 151-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2019-yil 14-yanvarda 3120-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

6. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining 1-son standarti «Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar» (Adliya vazirligida 2026-yil 27-martda 3797-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

7. Федеральный стандарт бухгалтерского учета для организаций государственного сектора "Запасы": утв. приказом Минфина России от 07.12.2018 г. 256н // Консультант Плюс. No

8. Инструкция по применению Единого плана счетов бухгалтерского учета для органов государственной власти, органов местного самоуправления, органов управления государственными внебюджетными фондами, государственных академий наук, государственных (муниципальных) учреждений: ув. приказом Минфина России от 01.12.2010 г. 157н // Консультант Плюс. No

9. Об утверждении Правил ведения бухгалтерского учета в государственных учреждениях: приказ Министра финансов Республики Казахстан от 3 августа 2010 года // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан "Әділет." No

10. Регламент über die Rechnungs- und Buchführungspflichten von Krankenhäusern (Krankenhaus-Buchführungsverordnung - KHBV) // Bundesministerium der Justiz.

11. NHS England. Approved Costing Guidance 2024: Healthcare costing standards for England. - London: NHS England, 2024.

12. Busse R., Geissler A., Quentin W., Wiley M. (eds.) Diagnosis-Related Groups in Europe: Moving towards transparency, efficiency and quality in hospitals. - Maidenhead: Open University Press, 2011. - 464 p.

13. Kaplan R.S., Porter M.E. How to solve the cost crisis in health care // Harvard Business Review. - 2011. - Vol. 89, No. 9. - P. 46-64.

14. Volland J., Fügener A., Schoenfelder J., Brunner J.O. Material logistics in hospitals: A literature review // Omega. - 2017. - Vol. 69. - P. 82-101.

15. Mogyorosy Z., Smith P. The main methodological issues in costing health care services: A literature review. - York: Centre for Health Economics, University of York, 2005. - (CHE Research Paper 7). - 240 p.

16. Tulyaganov A.A. Davlat tibbiyot muassasalarida tovar-moddiy qiymatliklar harakati hisobini takomillashtirish // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. - 2022. - № 6.

17. Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2019-2025-yillar uchun nomoliyaviy aktivlar harakati to‘g‘risidagi hisobotlari (5-son shakl).

18. Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatik shifoxonasining 2024-yil uchun ichki analitik registri («Analiz_2024») va qo‘llanilgan tuzatish o‘tkazmalari ro‘yxati.

19. GS1 UK. A scan of the benefits: the Scan4Safety evidence report. - London: GS1 UK, 2020.

20. City of New York Office of the Comptroller. Audit Report on Inventory Controls over Noncontrolled Drugs at Coney Island Hospital (MG07-111A). - New York, 2009.

21. Department of Health and Social Care. Annual Report and Accounts 2020-21 (HC 253). - London: DHSC, 2022.

22. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 19-son milliy standarti «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish»: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2024-yil 12-avgustda 3548-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).